

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Ro'yhatga olindi: BD-5110800-2.04

2018 - yil "25" "08"

QALAMTASVIR

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar  
Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika  
Ta'lim yo'nalishi: 5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiglashiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "15" 08 dagi 799 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchi:**

**Xalilov R.Sh** - «Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi» kafedrasi dotsenti

**Taqrizchilar:**

**Z.R. Bobomuratov** – TAQI, «Qalamtasvir rangtasvir va haykaltaroshlik» kafedrasi dotsenti.

**Xakimov U.B.** – Respublika rassomlik kolleji direktori.

## **I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni**

Qalamtasvir – barcha tasviriy san'at turlarining; rangtasvir, dekorativ – amaliy san'at, grafika xaykaltaroshlikning asosi sifatida bo'lajak pedagog rassomlarga borliqni ko'rib- kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgilarini shakllantirish hamda bo'lajak rassom-pedagoglarni tasviriy san'at asoslariga o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

Ushbu dastur pedagogika oliy o'quv yurtlari, tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalamtasvirning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi, tasviriy san'at qonun-qoidalari, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini pedagogik jarayonga puxta tayyorlashda qalamtasvirning ahamiyati xaqida so'z boradi.

## **II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi**

Fanning o'qitishdan maqsad – Qalamtasvir - barcha tasviriy san'at turlarining; rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, xaykaltaroshlikning asosi sifatida bo'lajak pedagog rassomlarga borliqni ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish hamda bo'lajak rassom-pedagoglarni tasviriy san'at asoslariga o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

“Qalamtasvir” fanining vazifalari boshqa kasbiy fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u talabalarga amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi.

### **Bakalavr:**

- qalamtasvirning tasviriy san'atda tutgan o'rni;

- qalamtasvir mashg'ulotlarini o'tishda tasviriy san'at asoslari, kompozitsiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluet, konstruktsiya, shtrix, masshtab, nisbatlar, materiallar xususiyatlari, yorug'-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanishni *bilimga*;

- talaba qalamtasvir darslarini rejalashtirish: natyurmort, portret, odamning turli holatlaridan postanovkalar tashkil etish, tasvirlash texnologiyalari, o'quvchilarga qalamtasvir mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini tahlil eta olish, yaxshi o'zlashtiruvchi va boshlovchi o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish *ko'rikma*;

- talaba tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, kompozitsiya qonuniyatlari va plastik anatomiya, portret xarakteristikasi va psixologik echim, o'quv va akademik qalamtasvir ishlash metodlari va metodologik asoslari, qalamtasvir texnologiyasi, oddiy geometrik shakllardan boshlab, insonning to'liq qomatini tasvirlay olish,

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi).

qalamtasvir kompozitsiyasi, tasviriy san'at asarlarini yaratishda qalamtasvirning ahamiyati, qalam va turli tasvirlash vositalarida kompozitsiyalar tuzish malakalariga ega bo'lishi kerak.

### III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

#### 1-moddul. Natyurmort

**1-mavzu: Turli ikki-uch geometrik shakldagi jismlardan tashkil topgan natyurmortning konstruktiv chiziqli qalamtasviri.**

Qalamtasvir fani tasviriy san'atning asosi sifatida. Qalamtasvir fanining maqsad va vazifalari. Shaklni konstruktiv tahlil qilish. Qalamtasvir fanini muhim xususiyati va obrazli ifodalash. Soya yorug' jihatlarini qalamtasvir fanining asosiy vositasi sifatida ahamiyatini o'rganish.

#### 2- mavzu: Sharning qalamtasvirini bajarish.

Shaklni konstruktiv tahlil qilish. Qalamtasvir fanini muhim xususiyati va obrazli ifodalash. Soya yorug' jihatlarini qalamtasvir fanining asosiy vositasi sifatida ahamiyatini o'rganish. Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirishni o'rganish.

#### 3- mavzu: Murakkab bo'lmagan shakldagi gips naqshli rozetkaning qalamtasviri.

Chiziqli va havo perspektivasi haqida asosiy tushunchalar. Chiziqli vahavo perspektivasini qo'llagan holda qalamchizgi va qoralamalari ishlashni o'rganish.

#### 4- mavzu: Matoning qalamtasvirini bajarish.

Tasvirlashning turli texnikalaridan foydalanib kompozitsiyalar bajarish. Soya yorug' jihatlarini qalamtasvir fanining asosiy vositasi sifatida ahamiyatini o'rganish. Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirishni o'rganish.

#### 5- mavzu: Uy-ro'zg'or buyumlarining konstruktiv qoralamasi (uy jixozlari, duradgorlik ashyolarini chiziqli perspektiva asosida).

Jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish Soya yorug' jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash

#### 6- mavzu: Kapital va san'at ashyolari bilan tuzilgan natyurmortning qalamtasviri.

Antik davrga mansub gipsdan ishlangan jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish Soya yorug' jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash

#### 7- mavzu: Turli shakl va fakturali uy- ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan murakkab bo'lmagan natyurmort.

Turli shakl va fakturali uy- ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan jismlarning soya va yorug' joylarini belgilab, tus jihatlarini topish Soya yorug' jihatlarini, rang berish usullarini o'rganish. Kompozitsiyadagi hajmdorlikni, fazoviylikni ifodalash

#### 2-moddul. David boshining bo'laklarini qalamtasviri.

#### 8- mavzu: David boshining bo'laklari qalamtasviri (burun, quloq, lab)

David boshining bo'laklari qalamtasviri (burun, quloq, lab) portret, plastik anatomiyasi, perspektiva qonunlariga asoslangan holda tuslashni o'rganish

#### 9- mavzu: David haykalining ko'z bo'lagini tasvirlash.

Antik davrga mansub gipsdan ishlangan yuz niqoblari tasvirini organish.

#### 10- mavzu: Kesik bosh haykalini ishlash

Odam boshining anatomik qurilishi haqida ma'lumot. Modelni o'rganish, qisqa muddatli chizgilarni bajarish. Konstruktiv qurish. Bosh nisbatlarini to'g'ri ifodalab tasvirlash.

#### IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar maxsus dastgohli uskunalar bilan jihozlangan o'quv ustaxonalarida har bir akadem guruh kichik guruhlarga bo'lingan holda o'tiladi. Mashg'ulotlar davomida "masterklass"lar o'tkaziladi.

#### V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'rganish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- Talabanning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- Faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- Masofaviy (distantion) ta'lim.

#### Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Usta rassom va pedagoglarning qalamtasvir va grafika bo'yicha yaratgan asarlarini tahlil qilish;
2. Tasviriy san'atning asosiy qonun va qoidalarini namoyish etuvchi plakatlarini o'rganish;
3. Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutoola qilish;
4. Tabiat qo'ynida chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda qalamchizgi va qoralamalari ishlash;
5. Rassomlar ustaxonalari, ko'rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish, hamda ulardan nushalar olish;
6. Shakllarni chiziqli konstruktiv qurilishini tasvirlashga oid mashqlar bajarish (Geometrik shakllar misolida).

7. Bosh suyagi yuz qismi bo'laklarining o'ziga hosligi va tuzilishiga oid tasvirlar ishlash.

8. Konstruktiv anatomik tuzilish asoslarini hisobga olgan holda ayol qiyofachining yuz tuzilishining xarakterli xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda boshning elka bilan birlashuvini aniqlab tasvirlash (bo'yin va elka muskullari bog'lanishini ifoda etgan xolda).

9. Yalang'och gavdaga qarab turli nuqtalardan tez qalamchizgilar bajarish, inson tana bo'laklarining konstruktiv - anatomik jihatdan tuzilishini o'rganish.

#### **1. VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar:**

1. Baymetov B. "Qalamtasvir". Darslik 1-qism.- Toshkent, 2006.

2. Халилов Р. Рисунок Издательство «Навруз» 2013

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

3. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'shlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Halq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажигимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қураимиз. Тошкент, "Ўзбекистон", 2017 йил, 488 бет.

5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, "Ўзбекистон", 2016 йил, 56 бет.

6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент, "Ўзбекистон", 2017 йил, 48 бет.

7. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Тошкент, "Ўзбекистон", 2017 йил, 104 бет.

8. B.Boymetov "Qalamtasvir" Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1997.

9. Tojiyev B, Mahkamova S. "Qalamtasvir" (dastlabki saboqlar). Metodik qo'llanma. Toshkent, 2013.

10. P.Thomas, A.Taylor Drawing, London-2011

11. B.Barber "Full course of the drawing", Barselona-2014.

#### **Internet saytlari:**

12. www. tdpu. uz

13. www. pedagog. uz

14. www. Ziyonet. uz

15. www. edu. uz

16. tdpu-INTERNET. Ped